

TILDAGI MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING KOGNITIV MODELLARI

Mahmudova Manzura Adashovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: Tilda milliy o'zlikni anglash — bu tilning madaniyat, tarix va identitet bilan bog'liq jihatlarini o'rganishga qaratilgan muhim tadqiqot sohasidir. Tilda ifodalangan fikrlar, qadriyatlar va an'analar xalqning o'ziga xosligini aks ettiradi. Ushbu annotatsiyada tildagi milliy o'zlikni anglashning kognitiv modellari va ularning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tildagi milliy o'zlikni anglashning kognitiv modellari til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Ushbu modellar xalqning identitetini, qadriyatlarini va urf-odatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar milliy o'zlikni anglashni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: milliy o'zlik, til va madaniyat, kategorik tushunchalar, madaniy meros, qadriyatlar, til o'rganish, ijtimoiy munosabatlar.

Аннотация: Национальная идентичность в языке является важной областью исследований, направленной на изучение аспектов языка, связанных с культурой, историей и идентичностью. Мысли, ценности и традиции, выраженные в языке, отражают самобытность народа. В данной аннотации рассматриваются когнитивные модели национальной идентичности в языке и их значение. Когнитивные модели национальной идентичности в языке раскрывают сложную взаимосвязь между языком и культурой. Эти модели важны для понимания самобытности, ценностей и традиций народа. Будущие исследования в этой области послужат углублению понимания национальной идентичности.

Ключевые слова: национальная идентичность, язык и культура, категориальные понятия, культурное наследие, ценности, изучение языка, социальные отношения.

Abstract: National identity in language is an important field of research aimed

at studying aspects of language related to culture, history and identity. Thoughts, values and traditions expressed in the language reflect the identity of the people. This annotation examines the cognitive models of national identity in language and their importance. Cognitive models of national identity in language reveal the complex relationship between language and culture. These models are important in understanding a people's identity, values and traditions. Future research in this area will serve to deepen the understanding of national identity.

Key words: *national identity, language and culture, categorical concepts, cultural heritage, values, language learning, social relations.*

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlar turganligi o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, mamlakatimizning rivojlanishida, inson tafakkurining o'zgarishida fan, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, shuningdek, o'zbek tili va til madaniyatining rivojlanishi xalqimizning avloddan avlodga o'tib kelayotgan tarixiy urf-odatlari, udumlari, an'analari, tartib-qoidalar, turmush tarzi va azaliy qadriyatlarining asosiy mezoni sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarning pirovard maqsadi – inson huquqlari va manfaatlari to'la-to'kis ta'minlanadigan fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat barpo etishdan iboratdir. Insoniyat tarixida tilga doimo katta e'tibor berib kelingan: "Shuzamon donishmandlarining biridan xalqning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ilmiy jihatdan yuksalayotganini qanday bilish mumkinligi to'g'risida so'ralganda, donishmand uch narsani sanagan ekan. Birinchisi, o'sha xalqning qahramonlik eposi jonli ijroda yozib olingan bo'lishi, ikkinchisi, o'sha xalq tiliga oid izohli lug'at tuzilgan bo'lishi, va nihoyat, shu xalqning Milliy ensiklopediyasi mavjud bo'lishi lozim ekan". Shukurki, bizda har uchalasi bor. 1995-yilning avgustida "Davlat tili haqida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shuningdek, 2019-yili davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

Farmoni qabul qilindi va Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish Departamenti tashkil etildi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatimizning barcha jabhalarida davlat tili – o‘zbek tilida to‘laqonli amal qilinishi yo‘lidagi islohotlarning debochasi bo‘ldi.

Darhaqiqat, til har bir millatning madaniyati, urf-odatlari, uning taraqqiyotini ko‘rsatuvchi oyna, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, Abdulla Avloniy aytganidek: “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

Tili rivojlanmagan elning ruhida yuksalish bo‘lmaydi, u o‘zligidan, milliyligidan tobora uzoqlashaveradi. Milliy til xuddi bayroq, madhiya, gerb kabi qadrli va aziz. Unda har bir millatning ruhi, dunyoqarashi aks etadi. Bugungi kunda mamlakatimiz bo‘ylab nishonlanayotgan “O‘zbek tili bayrami” yana bir bor ona tilimizning beqiyos ahamiyatini, tarixiy qadr-qimmatini ko‘z oldimizda namoyon etdi. “Davlat tili haqida”gi qonunning ahamiyati, shuningdek, o‘tgan davr mobaynida ona tilimizning nufuzini oshirish borasida bajarilgan ishlar millatimizning yuragi, ruhi, tom ma’noda joni hisoblangan ona tilimizni asrashdan iborat. Til – millat ko‘zgusidir. Til – millatning buyuk boyligi, beba ho xazinasi, tiganmas mulkidir. So‘z mulkining sulton, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarining tili biz o‘rganayotgan shu tilning asosi hisoblanadi. Buyuk adabiyoti bo‘lgan xalqning buyuk tili ham bo‘ladi. Insonning qanday ma’naviyatga ega ekanini uning tilidan, chiroqli nutqida namoyon bo‘ladi. Til millatning buyuk boyligi, beba ho xazinasi, tiganmas mulkidir. Ma’lumki, har qanday davlat mustaqilligining belgilaridan biri uning davlat tiliga ega ekanligidadir. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va davlat tili haqidagi qonunning joriy etilishi mustaqilligimiz poydevoriga asos bo‘ldi. Istiqlol sharofati bilan o‘zbek tilining mavqeい yanada tiklandi, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amal qilinishiga katta imkoniyatlar yaratildi. Xullas, barcha jabhalarda “Davlat tili haqida”gi qonunning ijrosi hayotga izchil targ‘ib etib kelinmoqda. O‘zbek tilining necha ming yillik tarixga ega ekanligini bilish uchun Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib asarlarini o‘qish lozim. Ana shundagina betakror tilimiz eng ko‘hna tillardan

biri ekaniga amin bo'lasiz. Hazrat Navoiy esa «Tilga e'tibor – elga e'tibor» iborasi bilan bizni ona tilimizdan faxrlanishga, g'ururlanishga undadi, ana shu tilda «Xamsa»ni bitib, uni yuksaklarga ko'tardi. Zamondosh tilshunoslarimizdan biri: «Navoiy ijodi tilimizni o'rganish uchun cheksiz ummondir», degan edi. Alisher Navoiyning ulug' maqsadi turkiy tilning ifoda imkoniyatlarini va uning badiiy xususiyatlarini dunyoga ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Ulug' ajdodimizning asarlarini o'qiganimizda o'zbek tilining ildizi qanchalik chuqur ekanligi, bu tilning imkoniyatlari naqadar kengligini anglaymiz. Navoiydan keyin tilimizni mumtoz adabiy tillar darajasiga ko'tarishni Zahiriddin Muhammad Bobur o'z zimmasiga oldi. Shoh va shoир Bobur Mirzo turkiy tilning boy ohang va tovushlarini to'liq ifoda etishga imkon beradigan yangi alifbo yaratish zarurligini anglagan holda «Xatti Boburiy»ni yaratdi. Boborahim Mashrab, Muhammad Rizo Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parpi kabi bir qator o'zbek adabiyotining namoyandalari o'z ijodi ila tilimiz va millatimiz mavqeini ko'klarga ko'tardi.

Til – millatning eng birinchi belgisi. Uning ravnaqi shu xalq ravnaqi bilan chambarchas bog'liq. Til, avvalo, milliy mustaqillik shahodatnomasi. Bosh qomusimizda ham davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi. Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi esa tilimizning jamiyatdagi mavqeini yanada yuksaltirdi. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida ona tilimizning mavqeini yanada oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Farmonda davlat tilini rivojlantirish borasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, davlat tilini rivojlantirish bo'yicha dastur va «Yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish, «O'zbek tili bayrami kuni»ni nishonlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni muomalaga kiritish kabi bir qancha vazifalarni amalga oshirish belgilandi. Bu hujjat yurtimizda tilimiz rivoji, uni saqlash va rivojlantirish

yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Va, guvohi bo'lib turganimizdek, mamlakatimizda ushbu hujjatda ko'zda tutilgan vazifalarni amalga tatbiq etish borasida sezilarli ishlar olib borilyapti. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 50 milliondan ziyod aholi o'zbek tilida so'zlashadi. Bu ona tilimizning dunyodagi yirik tillardan biri ekanidan dalolat. Bugungi kunda ona tilimiz siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviyma'rifiy jabhalarda faol qo'llanilib, jahon minbarlarida baralla yangramoqda. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida nutq so'zlashi esa tilimizning jahon miqyosidagi nufuzini yana bir bor mustahkamladi. Kognitiv modellar — bu inson fikrlash jarayonlarini tushunishga yordam beradigan nazariyalar to'plamidir. Ushbu modellar orqali til va fikrlash o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rish mumkin. Milliy o'zlikni anglashda bir nechta kognitiv model mavjud. Semantik model. Bu model til orqali ifodalangan ma'nolarni o'rganadi. Milliy o'zlikni anglashda, turli so'zlar va iboralar orqali milliy identitet qanday ifodalanishini tahlil qiladi. Kategorik tushunchalar. Bu model odamlarning atrof-muhitni qanday tasavvur qilishini ko'rsatadi. Milliy o'zlikni anglashda, turli kategoriylar (masalan, "uy", "oilaviy qadriyatlar", "madaniyat") orqali xalqning o'ziga xosligi qanday shakllanayotganini tushunish mumkin. Mifologik model. Miflar va afsonalar milliy o'zlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu model orqali xalqning tarixiy va madaniy merosi qanday ifodalanishi va avloddan-avlodga qanday o'tishi tahlil qilinadi. Kontekstual model. Bu model tilning kontekstual ahamiyatini e'tiborga oladi. Milliy o'zlikni anglashda kontekst (ijtimoiy, madaniy, tarixiy) muhim ahamiyatga ega, chunki u tilning ma'nosini va uning qabul qilinishini belgilaydi. Milliy o'zlikni anglash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: Til orqali ma'lumot olish: odamlar til orqali boshqa insonlardan ma'lumot oladilar, bu esa ularning fikrlarini va his-tuyg'ularini shakllantiradi. Semantik va kognitiv integratsiya: olingan ma'lumotlar semantik jihatdan qayta ishlanadi va kognitiv jarayonlarda integratsiya qilinadi. Identitet shakllanishi: ushbu jarayon natijasida shaxs yoki guruhning milliy identiteti shakllanadi. Bu identitet til orqali ifodalanadi va mustahkamlanadi. Tildagi milliy o'zlikni anglash — bu murakkab jarayon bo'lib,

u ko'plab kognitiv modellarning birgalikda ishlashini talab qiladi. Til, madaniyat, tarix va ijtimoiy kontekst bir-biri bilan bog'liq bo'lib, milliy identitetni shakllantirishda muhim rol o'yaydi. Kognitiv modellardan foydalanish orqali biz bu jarayonlarni chuqurroq tushunishimiz mumkin, bu esa milliy o'zlikni yanada aniqroq anglashga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyot va havolalar

1. Oxford L.L. Language learning strategies: What Every Teacher should know.
– N.Y. New Bury House Publishers, 1990.
2. Prodromou L. The good language teacher // English teaching Froum, 1991.
3. Ishmuhammedov. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish”. – Toshkent., 2009.
4. Верещагин Е.М. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного / Е. М. Верещагин, В. Г. Костомаров. Изд. 2009.
5. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/41064_1_C10847B5552519B340815ACC8832AFB671C9CAA1.pdf